



## TARJIMON MUTAXASSISLIGIGA KIRISH

*Farxodova Sabrina*  
*O‘zDJTU, Tarjima nazariyasi va*  
*amaliyoti fakulteti talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Xolboboyeva A.SH.*  
*O‘ZDJTU, “Ingliz tili amaliy*  
*tarjima” kafedrasida dotsenti*  
*Filologiya fanlari bo‘yicha*  
*falsafa doktori (PhD)*

**Anonatsiya:** *Mazkur maqola tarjimashunoslik tarixi, buguni va kelajagiga oid umumiy qarashlar xususida so‘z yuritadi. Shu bilan bir qatorda tarjimaning turlari, tarjima maktablari haqidagi ma‘lumotlar ushbu maqolada o‘rin egallagan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Bayt- al - Hikma”, “Toledo school”, sinxron tarjima, katta hajmdagi matnlarni tarjima qilish, visual tarjima, keng imkoniyatlar.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится об общих взглядах на историю, настоящее и будущее переводоведения. Кроме того, в эту статью включена информация о видах перевода, школах перевода.*

**Ключевые слова:** *«Байт аль-Хикма», «Школа Толедо», синхронный перевод, перевод больших текстов, визуальный перевод, широкий спектр возможностей.*

**Annotation:** *This article talks about general views on the history, present and future of translation studies. In addition, information about types of translation, translation schools is included in this article.*

**Keywords:** *"Bayt al-Hikma", "Toledo school", simultaneous translation, translation of large texts, visual translation, wide range of possibilities.*

Tarjimonlik san‘ati qadimdan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda, munosabatlarni tiklashda, madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirishda va bilimlarni keng yoyishda muhim rol o‘ynab keladi. U insoniyat rivoji bilan birga paydo bo‘lgan va jamiyatlar o‘rtasidagi til to‘siqlarini bartaraf etishda asosiy vosita hisoblangan. Tarjimonlik orqali dunyo xalqlari bir-birlarining madaniy, ilmiy, diniy, dunyoviy va tarixiy meroslari bilan yaqindan tanishgan. Bugungi kunga, tarjimonlik yanada keng imkoniyatlarga erishib, zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarildi.

Tarjimonlikning paydo bo‘lishi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Rimda tarjimonlikka ehtiyoj baland bo‘lib, bu hududlarda turli tillarda so‘zlashuvchi aholining o‘zaro kichik kundalik muloqotiga ham tarjimon zarur bo‘lgan. Qadimgi davrlarda tarjimonlar asosan savdo-sotiq, diplomatiya va diniy muloqotlar uchun zarur bo‘lgan. Tarjimonlikning rivojlanishida muhim davrlardan biri o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi. Xususan, VIII - XII - asrlarda Bog‘dodda tashkil etilgan “Bayt-al - Hikma” (“Bilim uyi”) tarjimonlik markazi dunyo ilm- fan



tarraqqiyoti uchun katta hissa qo‘shgan. Yunon va Rim falsafasi, hind matematika va astronomiya asarlari arab tiliga tarjima qilinib, Sharq va G‘arb ilm - fanining yuksalishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, qadimgi Misr fir‘avnlari boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatishda tarjimonlardan foydalanganlar. Bu davrda Yevropada ham bir qator tarjimonlar diniy, ilmiy va falsafiy asarlarni lotin tiliga tarjima qilgan. Bu kabi tarjima sohasida olib borilgan ishlar Yevropa Renessansining boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Tarjimonlikning gullab - yashnashida O‘rta asrlarda Yaqin Sharq va Yevropa ilmiy markazlari o‘rtasidagi aloqalar katta ahamiyat kasb etdi. VIII - XII- asrlarda tashkil etilgan “Bayt-al- Hikma” markazi tashkil etilgandan so‘ng, yunon, hind va fors manbalaridan arab tiliga ilmiy va falsafiy asarlar tarjima qilinib, ular Sharq ilmiy durdonalari merosiga kiritildi va butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Tarjima san‘ati Yevropada ham rivojlandi. Masalan, Ispaniyadagi Toledo shahrida ham G‘arb olimlarining malaka, bilim almashinuv markazi bo‘ldi desak yanglishmaymiz. Bu markaz “Toledo maktabi” deb nomlangan. Bu davrda yirik falsafiy va diniy asarlar arab tilidan lotin tiliga tarjima qilindi, bu esa Yevropa uyg‘onish davrining asosini yaratdi. Bu “Toledo maktabi” G‘arb mamlakati tarixidagi birinchi tarjimonlik maktabi bo‘ldi, tarjima sohasidagi ko‘plab olimlarni birlashtirdi. Tarjimalar bilan Yevropa olimlari Arastu, Platon kabi yunon faylasuflari, Abu Ali Ibn Sino va Abu Nasr Farobiy kabi Sharq mutafakkirlari asarlari bilan yaqindan tanishdilar.

XVI - XVIII asrlarda G‘arbda tarjimonlik sohasida yirik o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Diplomantik aloqalar kuchaygan sari diplomatik va huquqiy tarjima ham rivojlandi. Shu bilan bir qatorda, bu davrda adabiy tarjimonlarga ham e‘tibor oshdi. Jahon adabiyotining yetuk durdonalari boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyo madaniyati, ilmi, falsafasi va ijodiy merosiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Mashhur ingliz yozuvchisi Shekspirning asarlari Yevropaning ko‘plab tillariga tarjima qilinib, har bir xalqqa o‘z madaniy ko‘zoynagi orqali o‘qishga imkon berdi.

Bugungi kunda tarjimonlik jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Dastlab faqat matn tarjimasini bilan cheklangan bu soha hozirda og‘zaki tarjima, sinxron va ko‘p tilli tarjima kabi bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bugungi kunda tarjimonlik faqat inson omiliga bog‘liq emas, balki avtomatlashtirilgan vositalar bilan ham amalga oshirilmoqda. Mashina tarjimasini (“machine translation”) texnologiyalari - sun‘iy intellekt va neyron tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan tarjimalar hozirda ko‘plab kompaniya va davlatlar tomonidan qo‘llanilmoqda. Google Translate, DeepL, Microsoft Translator kabi vositalar matnlarni avtomatik tarjima qilish imkonini beradi. Ular bir necha soniyalar ichida katta hajmdagi matnlarni tarjima qilishga qodir, biroq matnning murakkabligi oshgan sari ularning sifati inson tarjimasidan ortda qoladi. Ayniqsa, badiiy asarlar va tarixiy hujjatlarning tarjimasida inson tajribasi va hissiyotini to‘la yetkazish uchun hali ham tajribali tarjimonlarga ehtiyoj yuqori. Shuningdek, bugungi kundagi kinolar, kitoblar, video o‘yinlar, hujjatli filmlar va onlayn kontentlarni tarjima qilish orqali madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar yanada yaqinlashmoqda. Bugungi davrda tarjima sohasi asosan og‘izaki va yozma tarjimaga bo‘linadi.



Og‘izaki tarjima - bir tildan boshqa tilga jonli ravishda o‘giriladi. Bu tur asosan uchrashuvlar, konferensiyalar va rasmiy tadbirlarda ishlatiladi. Og‘izaki tarjimaning o‘zi ham bir necha yo‘nalishga bo‘linadi. Sinxron tarjima - bu turli xil xalqaro konferensiyalar va uchrashuvlarda tarjimonlarning bevosita ishlashi bo‘lib, o‘ta yuqori mahorat va malakani talab etadi. Negaki, tarjimonlar bir vaqtning o‘zida gapni eshitib, uni boshqa tilga aylantirib uzatishadi. Bunday tarjima usuli hozirgi kunda keng qo‘llanilmoqda va xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT va Yevropa Ittifoqi sinxron tarjimonlarga katta e‘tibor beradi.

Tarjimaning keyingi turi - ketma-ket tarjima bo‘lib, (inglizcha: *consecutive interpretation*) - bu og‘izaki tarjimaning bir turi bo‘lib, bunda tarjimon bir vaqtning o‘zida gapni eshitib, uni yozib boradi va tinglovchi nutqini tugatgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilib beradi. Ketma-ket tarjima ko‘pincha kichik tadbirlar, rasmiy uchrashuvlar, biznes uchrashuvlari, brifinglar va press-konferensiyalarda qo‘llaniladi. Tarjimaning o‘ziga xos navbatdagi turi- “Shivirlab tarjima qilish” (“Whispered Interpretation”) - bu sinxron tarjima turi bo‘lib, unda tarjimon ma‘ruzachining gapini eshitib turib, ayni vaqtda uni juda past ovozda yoki shivirlab, bevosita tinglovchiga tarjima qilib beradi. Ushbu tarjima turi kam sonli tinglovchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda ikki yoki uch kishi uchun amalga oshiriladi. Tarjimaning keyingi yo‘nalishi – “Visual tarjima”. Visual tarjima - matn va tasvirlarni vizual qabul qilish asosida tarjima qilish jarayonidir. Bu usulda tarjimon ko‘pincha yozma matnlarni, grafik materiallarni yoki multimediya kontentlarni ( masalan, vidiolar, slaydlar) ma‘lum bir tilga tarjima qiladi yoki ularni ma‘lum bir tilda sharhlaydi, ayniqsa, subtirlarni yaratishda, visual dizayn materiallarini tarjima qilishda va visual content bilan ishlashda keng qo‘llaniladi.

Yozma tarjima - matnni bir tildan ikkinchi tilga yozma ravishda o‘g‘irish jarayonidir. Bu usulda tarjimon manba matnni o‘qib chiqadi va uni boshqa tilga yozib beradi. Bu usul kitoblar, maqolalar, hujjatlar, yuridik va ilmiy matnlar, web-sahifalarda qo‘llaniladi. Yaqin kelajakda tarjimonlikda sun‘iy intellektning roli yanada oshishi kutilmoqda. Neyron tarmoqlar, kontekstual tarjima texnologiyalari ovozni tanib olish va mashina tarjimasi jarayonida kontekstini aniqlash texnologiyali yanada takomillashuvi taxmin va harakat qilinmoqda. Shu bilan birga, insonning ijodiy hissasi, madaniy bilimlari va hissiyotini yetkazish qobiliyati hech qachon sun‘iy vositalar bilan to‘liq almashtirilmaydi. Kelajakda ehtimoliy taxmin shuki, texnologiyalar tarjimonlar esa yuqori sifatli, murakkab, madaniy va ijodiy tarjimalarni amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida o‘z o‘rnini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlik san‘ati qadimdan odamlarni, madaniyatlarni, ilm-fanni birlashtirib, ularning bilim va g‘oyalarini bir\_biriga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. U madaniy o‘zaro tushunish, xalqaro aloqalar va ilmiy rivojlanishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda esa avtomatlashtirilgan tarjima texnologiyalari bilan bir qatorda, inson tarjimonlari ham o‘z ishlarida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tarjima jarayonida insonning ijodiy hissasi va tilga bo‘lgan chuqur tushunchasi har doim muhim bo‘lib qoladi, texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali va tez amalga oshirishda ko‘maklashuvchi vosita bo‘ldi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tўxtasiнов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Пед. фан. док. дисс. автореф. –Т: 2018.69 б.
2. Yo‘ldoshev U.R. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
3. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur – Bo‘ston, 2012 -126 b .
4. Kholboboeva A. S. GENERAL FEATURES OF TOURISM ADVERTISEMENT DISCOURSE //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 261-263.